

EPIK ASARLARDA QAHRAMONLARNING YORITILISHI

Jalilova Zarina Sadriddinovna

Buxoro shahridagi 41 – maktabning Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

jalilovazarina9389@gmail.com

(Yozuvchi X. Do'stmuhammad hikoyalari misolida)

***Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi epik turning o'ziga xos xususiyatlari va qahramon xarakterining qay yo'sinda yoritilishi yozuvchi X. Do'stmuhammadning ba'zi hikoyalari misolida tahlil qilingan. Qahramonlar haqida so'z yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** epik asar, nasriy asar, qahramon, xarakter, ruhiyat, tasvir, konflikt.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyo jamiyatida barcha sohalarda jadal rivojlanishlar sodir bo'layapti shu jumladan o'zbek adabiyotida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berayapti. Bu esa o'z navbatida yozuvchilik ma'suliyatini yuqori darajada bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Milliy nasrida ham bunday talabga javob bera oladigan, o'z ijodining serqirra namunalarini ulashadigan ijodkorlar talaygina.

Epik asarlar jumladan hikoya va qissalar ko'plab yozuvchilar tomonidan o'rganilgan, hozirda ham ko'plab muhokamalarga sabab bo'lyapti. Hozirgi kunlarda yaratilayotgan qissa – hikoyalar haqida gazeta va jurnallarda maqolalar chiqib turibdi. Hozirgi kun o'zbek nasrida ijod qilayotgan talantli adiblarimiz ham oz emas. Ular yaratayotgan hikoya va qissalarning badiiy salmoqdorligi ancha yuqori desak ham bo'ladi. Yozuvchilarimizning o'z hikoyalarining saviyasini o'stirib bormoqdalar.

Adabiyotni nazariy jihatdan o'rganish adabiyot yer yuzida paydo bo'lgandan beri sodir bo'lib kelyapti. Adabiyot rivojlangan sari uni nazariy jihatdan o'rganish ehtiyoji ham o'sib boraveradi.

“Xarakter”, haqida ko’plab olimlar o’zlarining nazariy qarashlarini yoritib berganlar. Shu jumladan adabiyotshunos olim T. Boboyev o’zining ilmiy qarashlarida xarakter haqida to’xtalib o’tar ekan, quyidagi ilmiy qarashni ilgari surgan: “Xarakter ma’lum ijtimoiy faoliyat tipi. Xarakter L. Timofeyev aytganidek obrazning yadrosi. Xarakter birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o’z individual xatti – harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo’ladigan insonning aniq tasviri. Umuman aytganda qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi”¹. Demak olimning fikrini quyidagicha izohlashimiz mumkin. Har qanday sharoitda o’z davri kishilarining muhim jihatlarini o’zida mujassam eta olgan obrazgina xarakter darajasiga ko’tariladi. Asar qahramonining xarakterini ochishda, nafaqat uning xatti – harakatlari, balki uning ruhiyatlarida yuz berayotgan o’zgarishlar ham muhim rol o’ynaydi.

Zamonaviy o’zbek nasrida o’zining uslubi va mavqeyiga ega bo’lgan ijodkor X. Do’stmuhammad ham milliy nasrimizni boyitishga o’z hissasini qo’shib kelyapti. Uning epik asarlari ko’lami ancha salmoqli. Jumladan uning hikoyalari dunyo adabiyoti namunalari bilan tenglasha oladigan saviyada yozilganligiga guvoh bo’lamiz. Uning ijodida hikoyalarning o’rni alohida sababi yozuvchi hikoyalaridagi qahramonlar real voqelikka asoslangan va ular bugungi jamiyatimizda uchrayotgan insonlardir.

“Yozuvchi qahramonlar taqdirini hayotdagi chigalliklarni shunchaki ifoda etish bilan cheklanmaydi balki hayotning ma’nosini chaqishga intiladi”². Ushbu fikr X. Do’stmuhammadga tegishli desak yanglishmagan bo’lamiz. Chunki yozuvchi ijodida ham qahramonlar shunchaki tanlab olinmagan. U yaratgan ramzlar daliliy asoslar orqali ochib berilgan va bu bilan hayotning ma’nosini chaqishga intilgan. Adib hikoyalaridagi o’ziga xoslik shundaki uning ijodiy uslubining rang – barangligidir. Muallifning “Oq libos”, “Qazo bo’lgan namoz”, “To’xtaboyning boyliklari” hikoyalari bir xil an’anaviy realistik uslubda yozilgan. Ularda yaratilgan

¹ T. Boboyev “Adabiyotshunoslikka kirish” T. O’zbekiston. 2002 – y. B 52

² U. Normatov, Yetuklik. – T.:1982 201 – bet.

qahramonlar oddiy xalq vakillari ularning xarakterini ochishda jamiyatdagi insonlar bilan go'yoki muloqotda bo'lgandek tasvirlanadi. Jumladan “Qazo bo'lgan namoz” hikoyasida sof realistik uslub ustuvorlik qiladi. Hikoyada real tarixiy obrazlar tarixiy voqealar milliy xarakter. Yozuvchi qahramon xarakteridagi o'zgarishlarni badiiy psixologik tahlil qilish orqali ochadi. Adib hikoyalarida yangi davr kishilarining hayotida sodir bo'layotgan hodisalar, insonning o'zligini saqlab qolishga yangi davrga va makonga qadam qo'yishga undaydigan qahramonlar tasvirlangan. Bundan tashqari adibning “Istelo” hikoyasidagi Mirzakomilboy ham doimiy taqib ostida bo'lgan qahramon sifatida tasvirlangan. Hikoyada u tarixiy obraz sifatida tasvirlangan va u ota – onasining kimligini unutgan, ruhan, qalban mute manqurtga aylangan qahramon sifatida tasvirlangan. Hikoyaning mazmuni bugungi avlodni hushyorlikka chaqiradi.

Yozuvchining hikoyalarida obrazlarning umumlashtirilgan holda ko'rishimiz mumkin. Hikoyalaridagi obrazlarning qahramonlarning o'zgacha ekanligi alohida e'tiborga molik desak yanglishmaymiz. Adib qahramonlarning xarakterini yoritishda turli mistik kuchlardan foydalanadi. Ularning dunyoqarashi o'zgachaligi va ularning tabiatidagi davrga xoslik yaqqol namoyon bo'ladi. Hikoyalaridagi obrazlarning umumlashtirilganligini ramz va ruhiyat tasvirining o'zaro mutanosib tarzda berilganligiga guvoh bo'lamiz. Adibning hikoyalarini mutolaa qilgan kitobxon “badiiy obraz” o'rniga “ramzli obraz” ga duch keladi. Xurshid Do'stmuhammad haqiqatan ham ijod orqali obrazlarni xarakterlash ularning xatti – harakatlariga mos qahramonlarni tanlay olgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T. Boboyev “Adabiyotshunoslikka kirish” T. O'zbekiston. 2002 – y. B 52
2. U. Normatov ,Yetuklik. – T.:1982 201 – bet.
3. Дўстмуҳаммад Х. Ҳовли этагидаги уй. –Т.: Шарқ, 1989. -156-б.
4. Дўстмуҳаммад Х. Жажман. –Т.: Ўқитувчи, 1995. 210 б.
5. Дўстмуҳаммад Х. Беозор қушининг қарғиши. –Т.: Шарқ, 2006. -512 б.